



**REALIYA HAMDA MILLIY KOLORITNI IFODALOVCHI
LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR .**

Z B Djalilova

BuxDU, f.f.f.d.(PhD)

N O Yuldashova

BuxDU Lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslik masalalarida realiya tushunchasi, uning ma'lum bir xalq madaniy me'rosida tutgan o'rni, milliy koloritning eng muhim jihatini ifodalashi alohida dolzarb ahamiyatga ega ekanligi haqida tahlil qilingan, hamda realialar va boshqa lingvokulturologik til birliklarning farqli jihatlari tushuntirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *realiya, milliy kolorit, milliy so'zlar, lingvokulturema, madaniyatlararo munosabat.*

Annotation: *This article focused on concept of realia, its place in the cultural heritage of a certain nation, the most important aspect of the national color and aspects of realia with other lingvoculturological units are explained.*

Keywords: *realia, national color, national words, linguacultureme, internatsional relations.*

Hozirgi kunda til muloqot vositasi bo'lib qolmasdan, har bit xalqning, millarning madaniyatini, qadriyatlarini, umumiy qilib aytganda har bir xalqning o'ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim vosita bo'lib kelmoqda. Bu hodisaning lisoniy voqealanishini o'rganishda lingvokulturalogiyaning o'rni juda katta ahamiyatga hisoblanadi. Lingvokulturalogiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari lingvomadaniy birliklar bo'lib bularga ramz, stereotiplar, realiyalar, lakuna, pretsedent, etalon, mifologema, metafora, iboralar, paremiologik birliklar, muqobilsiz til birliklari hamda nutqiy etiketlari eng asosiy hisoblanadi.

Lingvomadaniy birliklardan biri bu realiyalar hisoblanadi. Realialar haqida gapirganda “kolorit” tushunchasiga ham oydinlik kiritish kerak bo'ladi. Sh. Usmonovanning fikriga ko'ra “Kolorit – biror narsa yoki voqea-hodisa (davr yoki hudud) ning o'ziga xos xususiyatlari majmuidir. Shu bois u muayyan xalqqagina xoslik alomatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bu jihat, o'z-o'zidan muayyan tarixiy davrda sodir bo'ladi. Realialarga esa davriy kolorit ham xosdir [1,160]

Realiya va Lokalizm. “Lokalizm” terminiga kelsak, unga yaqin bo'lgan “maishiy so'z”, “etnografizm”lardir. Chunki bu terminlarning bir-biriga juda yaqinligi bor. Ayni paytda lokalizmlar stilistik jihatdan realialarga juda yaqin turadilar. Lokalizimlar shunday so'z va so'z birikmalariki, ular adabiyotlarda aniq ko'rsatib bo'lmaydigan muayyan hudud bilan chegaralanadilar. Lokalizmlarga semantik jihatdan qaralganda realialarga juda ham yaqinlik tomonlari bor. Chunki, ana shu “mahalliylik” tushunchasi va ular angalatadigan predmetlar aynan realialarga ham taalluqlidir. Ammo biz realialarni yanada kengroq tushuncha sifatida qo'llaymiz. Lokalizm til lug'at tarkibining alohida qatlami hisoblanadi.



U xalqimizning ijtimoiy hayoti, milliy va madaniy urf-odatlarini, diniy e'tiqodlari hamda o'ziga xos mintaliteti asosida paydo bo'lgan lisoniy birliklardir.

Xalqlar turmush hayotida asrlar davomida to'plangan, bugungi kunda ham faol yoki unitilib borayotgan maqollar ham etnografik leksikada muhim ahamiyat kasb etadi. Misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Ta'ziyaga o'zing bor, to'yga to'ning bilan sallangni yubor;
- Qavming bilan quda bo'l, qavmlik qilsa fido bo'l;
- Bosh omon bo'lsa do'ppi topilar;
- Hashar qildim-uy qurdim, bunda ko'p hikmat ko'rdim

Yuqorida keltirilgan xalq og'zaki namunalaridan ta'ziya, to'y, salla, quda, do'ppi, hashar kabi etnografizmlar xalqimiz kundalik hayotida faol ishlatilishini kuzatishimiz mumkin. Lokalizmlar yoki etnografizmlarda asosan mahalliy xususiyatlar ifodalangan etnografizmlar berilibgina qolmasdan barcha o'zbeklar uchun umumiy bo'lgan va adabiy til doirasida keng qo'llaniladigan o'zbek milliy an'ana va marosimlar nomlari etnografik planda yoritilib beriladi. [4,286]

Realiya va lakuna. Realiya va lakunaning eng muhim farqi lakuna muayyan millat ongida mavjud bo'lgan, ammo shu millat tilida nomlanmagan ya'ni leksemalashmagan tushuncha bo'lsada uni shu millat vakillari ham, boshqa til egalari ham songina tushuna oladi va ma'nosini anglay oladi. Realiyalarni esa tushunish va tassavvur qila olish biroz mushkul. Chunki u muayyan millatning urf-odatlarini, dunyo qarashi mahsuli bo'lib, u boshqa millatlar tasavvurida, kundalik turmush tarzida, madaniyatida mavjud emas. Shuning uchun u o'zga til sohiblari uchun notanish va noodatiy tuyuladi hamda berilayotgan realiya haqida tushunchaga ega bo'lishda biroz qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shuning uchun ba'zida realiyalarni o'zga millat vakillari tomonidan o'zgacha qabul qilinishiga sabab bo'ladi. [3,235]

Lakunalar asosan ikki til leksikasi qiyoslanganda yoki tarjima qilinyotganda namoyon bo'ladi. Lakunalar odatda til egalari ma'lum, biroq alohida leksema bilan nomlanmagan tushunchalar hisoblanadi. Misol sifatida keltirilgan bo'lsak eski o'zbek tilida cho'chqa bolasi “cho'rpa” nomi bilan yuritilgan bugungi kunda ham mamlakatimizning ayrim hududlaridagi shevalarda “chulpak” tarzida ham qo'llanilib kelinmoqda. Ammo bu so'zni hozirgi o'zbek adabiy tilida novlovchi leksema mavjud emas. Bunday tushuncha va so'zlarni lakuna sifatida barcha tillarda topishimiz mumkin. Chunki ongda barcha tushunchalarning leksema tarzida ifodalanishi mushkuldir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuni aytish kerakki, realiya bu millatning, xalqning madaniyati, urf-odatlarini ko'rsatib beruvchi milliylik xususiyatiga ega lingvomadaniyatshunoslikning asosiy til birligi ya'ni linvokulterema bo'lib, u badiiy adabiyot uchun ham g'oyatda muhim hisoblanadi. Realiyalarni qo'llaganda ularning boshqa lingvokulturalagik til birliklari orasidagi o'zni qanchalik ahamiyatli ekanligini hisobga olish muhimdir.



REFERENCES:

1. Usmonova Sh, Rixsiyeva. G Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma.- Toshkent.: TDShI.2017.160b
2. E.Ochilov "Badiiy tarjima masalalari" Toshkent- 2014.
3. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent. O'qituvchi 1983- 235b.
4. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent. O'qituvchi 1987-286b.
5. Вайсбурд Е.М. Реалия как элемент страноведения. – Москва, 1972.-98с.
6. Bakhodirovna, D. Z. (2021). Description of Human Features and Feelings through Flora in English Poetry. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2(10), 6-9.
7. Djalilova, Z. (2023). ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҲИС-ТУЙҒУЛАРНИНГ "ҲИССИЁТБУ ЎСИМЛИК" КОНЦЕПТУАЛ МЕТАФОРАСИ ОРҚАЛИ ИФОДАЛАНИШИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 29(29).
8. Djalilova, Z. (2022). ОПИСАНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ОБРАЗА ПОСТРЕДСТВОМ ЦВЕТОВ В АНГЛИЙСКОЙ ПОЭЗИИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 26, 26.
9. www.lingvo-plus.ru/perevod-realiy/
10. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Реалия>
11. Saidova, Z. K. (2023). PROBLEMS OF LINGUO-CULTURAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 700-707.
12. Khudoyberdievna, S. Z. (2022, January). Classification of verbal phraseological units denoting the emotional state of a person. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 90-93).
13. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Questioning techniques in teaching English // Достижения науки и образования. 2018. №5 (27). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/questioning-techniques-in-teaching-english>.
14. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Implementation of some techniques in developing reading skills in English classes // Достижения науки и образования. 2018. №5 (27). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/implementation-of-some-techniques-in-developing-reading-skills-in-english-classes>.
15. Saidova, Z. (2022). ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ МОДУЛЬНОЙ ОБЪЕКТНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ДИНАМИЧЕСКОЙ ОБУЧАЮЩЕЙ СРЕДЫ (MOODLE) В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 8(8).
16. Saidova, Z. X. Implementation of some techniques in developing reading skills in English classes., Достижения науки и образования № 5 (27) Россия-2018. стр. 59-60.